



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KICHIK GURUH BOLALARIDA IJTIMOY-HISSIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING VAZIFALARI

Abdullayeva F. Sh.

ChDPU "Maktabgacha ta'lim" fakulteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: "Men" shakllanishi, 3 yosh krizisi, negativizm, agressivlik, o'jarlik, qat'iylik, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti, ijtimoiy moslashuv, rag'batlantirish, qo'llab quvvatlash.

Ключевые слова: формирование «Я», 3-летний кризис, негативизм, агрессивность, упрямство, настойчивость, социально-эмоциональное развитие, семья, дошкольная образовательная организация, социальная адаптация, поощрение, поддержка.

Key words: formation of «I», 3-year crisis, negativism, aggressiveness, stubbornness, perseverance, social and emotional development, family, preschool educational organization, social adaptation, encouragement, support.

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarining ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasida 3-4 yoshli bolalarda "Men" ining shakllanishi bilan bog'liq.

Bola bu davrda o'zini shaxs sifatida anglay boshlaydi. Ya'ni kattalar bajaradigan ishlarni ham "men qilaman", "men qila olaman" degan fikrda qat'iy turib oladi. Shu jarayonda bolaning ota-onasi va yaqinlari uni tashabbusini qo'llab-quvvatlasa, har bir kichik yutug'ini ham rag'batlantirib borsa, bajarayotgan ishiga ishonch bildirsa, bolaga qilayotgan ishida ko'maklashib borsa bolada "men" to'g'ri shakllanadi va bolada o'ziga nisbatan ishonch paydo bo'ladi.

Agar 3-4 yoshli bolalarda "men" ning shakllanish davrida ota-ona va yaqinlari tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bo'lmasa bolaning ruhiyatida salbiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Ya'ni, asabiylik, jahldorlik, sababsiz yig'lash va tengdoshlari bilan muloqot qila olmaslik kabi odatlar paydo bo'ladi va bu bolalarda 3yosh krizisi qiyin kechadi.

Ko'pchilik psixologlar fikriga ko'ra, bu tabiiy holat va bolaning ruhiy rivojlanishi uchun juda ham zarurdir. Bolada krizis 1 yoshda, 3 yoshda, 7



yoshda va o'smirlikda bo'ladi. 3 yoshli bolalardagi krizis paytida nima qilish kerakligini hamma ota-onalar ham bilavermaydi.

Agar 3 yoshdan oshgan farzandingiz injiq, hamma takliflarga rad javobini berayotgan bo'lsa, u 3 yosh krizis davrini boshidan kechirayotgan bo'lishi mumkin. Bu davrda bola o'zini onasining bir qismi emas, shaxs sifatida qabul qila boshlaydi. O'zining xohishlari, fikrlari borligini tushunib yetadi. Lekin, u hozircha o'zini qanday tutsa hammasi yaxshi bo'lishini bilmaydi, tushunmaydi. Shuning uchun ham jim turmaslik uchun hamma narsa qilishi mumkin – tortishishi, yig'lashi, g'alva qilishi.

Xo'sh, bu krizisning belgilari qanday?

1. Negativizm. Ya'ni farzandingiz hamma narsaga negativ reaksiya qiladi, hattoki o'zi yaxshi ko'rgan taomni taklif qilsangiz ham rad javobini eshitishingiz mumkin.

2. O'jarlik. Farzandingiz o'z aytganida oxirigacha turib oladi. Salqin kunda yupqa kiyim kiyish uchun yoki siz xohlamagan biror ishni qilish uchun jonjahdi bilan kurashishi mumkin. Bu o'jarlikni qat'iylik bilan aralashtirmasligimiz kerak. Qat'iylik yaxshi xulq, ya'ni qat'iyatli bola o'z xohlaganini talab qilishi bilan birga kattalarning fikrini inobatga oladi. O'jarlik esa shunchaki o'zi xohlagan narsa bo'lishini talab qilishdir, tushuntirishlar befoйда.

3. O'zboshimchalik. Bola hamma narsani o'zi bajarishga, o'zi hal qilishga mustaqil bo'lishga intiladi.

4. Agressivlik. Agar farzandingiz bog'chaga borsa, bolalar bilan urishishi, ularni xafa qilishi mumkin. Agar farzandingizni aka-opalari bo'lsa, ularni boshqarishga, aytganini qildirishga urinishi mumkin.

Krizisni boshidan kechirayotgan bola o'z harakatlaridan o'zi aziyat chekadi, lekin o'zini boshqara olmaydi.

Mutaxassislarning aytishicha, bu davr uzoq davom etmaydi. Psixologlarning aksari bu bola rivojlanishi uchun zarur davr deb ta'kidlashadi. Chunki bu davrda bolalar o'z fikrlarini o'tkazishni o'rganishadi. Uzoq davom etmaydigan ushbu davrdan asablarimizni asragan holda, bola ruhiyatiga zarar bermasdan o'tib olishimiz uchun quyidagilarga amal qilishni tavsiya etamiz:

1. Bu krizis aksar bolalarda uchraydigan tabiiy holat ekanini tushuning. Ya'ni, muloyim farzandingizning tarbiyasizligi yuragingizni g'ash qilmasin, farzandingizni to'g'ri yo'lga solaman deb juda ham qattiq qo'l bo'lmang, asabiylashmang, ularni qattiq jazolamang.

2. Farzandingiz mustaqil nimadir qilishini qo'llab-quvvatlang va bu ishi uchun uni maqtab qo'ying. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu davrda bola mustaqillikka o'rganadi. Shuning uchun farzandingiz qilmoqchi bo'lgan



ishlarda imkon boricha, xavfsiz sharoit yaratib bering. Natija siz xohlagandek bo'lmasa ham, ishiga aralashmaslikka harakat qiling. Qayerdir ifloslanar, balki idishlar sinar, eng asosiysi, bola sog'ligi va xavfsizligidir.

3. O'zingizni xotirjam tutishga harakat qiling. Halovatingizni yo'qotganingizni ko'rgan farzandingiz sizga yoqmagan ishida davom etadi, agar siz imkoni boricha, uning qilgan ishlariga xotirjam munosabat bildirsangiz, bola ishini takrorlashga qiziqmaydi ham.

4. Bolaga tanlash imkonini bering. Bu davrda farzandingiz o'zi xohlaganini qilishga harakat qiladi, ba'zida qilmoqchi bo'lgan ishi imkonsiz bo'lishi ham mumkin. Bunday hollarda tanlovni oldindan tayyorlab qo'yishingiz mumkin. Masalan, qizingiz sovuq kunda bog'chaga yupqa ko'ylakchasini kiyishni xohlab qolmasligi uchun, 2 ta qalinroq kiyimni avvaldan tayyorlab qo'ying va undan qaysi birini kiyishni xohlashishini so'rang. Bu davrda uning fikri bilan hisoblashishingiz krizis davrini osonroq o'tishiga yordam beradi.

5. Farzandingizni tinchlantirish yo'lini toping. Bolalar xarakteri turlicha bo'lgani uchun bu borada umumiy maslahat berish qiyin. Shuning uchun farzandingiz g'alva qilgan vaqtda har xil usullarni sinab koring. Fikrni chalg'itish ham ko'p bolalarda yordam berishi mumkin. Masalan, qayergadir borishni xohlamagan farzandingizga – mehmonga qanday kiyim kiyib borishni xohlashi haqida tanlov berishingiz asosiy masaladan chalg'itishi mumkin. Yoki qo'lini yuvishni xohlamaganida, qaysi sovun bilan yuvishni xohlashi kabi tanlovlar.

6. Yo'q deyishni ham biling. Yig'lab, o'jarlik qilayotgan bolaga odatda faqat jim bo'lishi uchun hamma narsaga ruxsat berib yuboramiz. Lekin, hatto krizis davrini boshidan kechirayotgan farzandimizga ham asosiy qoidalarini buzmasliklarida qat'iy turganimiz ma'qul, toki u yoshligidan oilaviy qoidalarimizni bilsin.

7. Farzandingizga ko'proq mehr va e'tibor bering. Bizning madaniyatda 3 yosh krizisi davri bolaning aka yoki opa bo'lgan davriga to'g'ri kelib qoladi, natijada ota-ona mehri va e'tibori yetishmasligi krizis davrini o'tishini sekinlashtiradi yoki bola ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar sizning tug'ruqdan keyingi depressiya davringiz katta farzandingiz krizis davriga to'g'ri kelsa, o'zingizni qo'lga olib, sokin bo'lishga harakat qiling.

Farzandingiz o'jar va boshqarib bo'lmaz yoki, aksincha, o'zi hech narsaga intilmaydigan bo'lib qolmasligi uchun uning fikri va xohishi ahamiyatli ekanini ko'rsating.

Kichkintoyning mustaqillikka bo'lgan harakatini baqirish, so'kish, urish orqali to'xtatishga harakat qilmang. Bu tarzda uning o'jarligini sindirmoqchi



bo‘lishingiz farzandingiz sizni eshitmay qo‘yishiga yoki o‘ziga ishonchi sinishiga olib kelishi mumkin. Bu o‘tkinchi davr farzandingizning alohida shaxs sifatida rivojlanishining birinchi bosqichi. Ota-onalar bu davrda o‘zlarini qo‘lga olib, har qanday holatda ham ularni yaxshi ko‘rishini amalda ko‘rsatishi juda muhim.

Bolalarning ijtimoiy hissiy rivojlanishida maktabgacha ta’lim tashkilotining ham roli katta. Chunki maktabgacha tashkilotiga brogan bola tarbiyachisidan mehr ko‘rsa, unda ijtimoiy moslashuv jarayoni oson kechadi va o‘z his-tuyg‘ularini, fikrlarini bayon etishga o‘rganadi.

3-5 yoshdagi bolalar kattalarning muhabbatiga, samimiy munosabatiga nisbatan ehtiyojni sezishadi. Kattalarga ishonch, uning hissiy holatini (suyunishini, mag‘rurlanishini, kamtarinligini, jahldorligini) his qilish imkoniyati shakllanadi, boshqalarning kayfiyatini o‘zgarishi sababini tushunishga intiladi. Kattalar bilan muloqot qilishning yangi shakllari: bilish jarayoniga oid muloqot avvaliga bilish faoliyati bilan bog‘liq holda kechadi, (masalan, o‘yin davomida qog‘oz va tabiiy jihozlardan tayyorlangan narsa va o‘yinchoqlar bilan tajriba o‘tkazish), 5 yoshning oxiriga borib ma’lum vaziyatlarga bog‘liq bo‘lmagan bilish jarayoniga oid muloqot turlarini qo‘llay boshlaydi.

Bolalar kattalarga savollar bilan muloqot qila boshlaydi. Bunday sharoitda 4 yoshdagi bolalarning kattalarga bergan savollari kattalar bilan muloqot olib borishga qaratiladi. Bu savollar orqali bolalar yangi ma’lumot olishga intiladilar va ko‘p narsalarni bilib olishga qiziqadilar.

4 yoshga borib bola tengdoshini (tasviriyl faoliyat, yasash, qurish-yasash mashg‘ulotlarida) o‘yin davomida sherik sifatida qabul qiladi. Bola o‘z sherigiga oddiy takliflar, iltimoslar bilan murojaat qilishi mumkin. 5 yoshdagi bolalar tengdoshlarining qitmirlik, tegajoqlik kabi salbiy jihatlarini baholay oladi. Bu yoshda tengdoshlari bilan muloqot qilish, birgalikda o‘ynashga intilish shakllanib boradi.

Kattalarning ta’siri ostida bolada vaziyatdan tashqari muloqotga kirishish kabi yangi shakllar yuzaga keladiki, bu sharoitda bola “odamlar dunyosiga” moslashadi. Bola insonni o‘zi yashab turgan jamiyat vakili sifatida anglay boshlaydi, ijtimoiy hayotda o‘zaro bog‘liqlikni bila boshlaydi. Muloqot qilishning bunday shakli o‘yinining shakllanishiga bog‘liq, chunki o‘ynash davrida bolalarni insonlarning o‘zaro munosabatlari, jamiyatdagi o‘zlarini tutishlari qiziqtiradi. 3-5 yoshdagi bolalar kattalarning samimiy diqqatiga va hamkorlikda ish olib borishga intilmaydi, balki kattalar bolalarni hurmat qilishlarini, o‘zaro tushunishlarini xohlaydi. Bu yoshdagi bolada tengdoshlari bilan muloqot qilish, boshqalar bilan o‘zini solishtirish, taqlid qilishga nisbatan



ehtiyoj kuchayib boradi. Faoliyatda (o‘yin, mahsuldor faoliyatda) tengdosh-sherigi sifatida qatnashadi. Tengdoshlari bilan muloqot davrida bolalar o‘yinda va boshqa faoliyatda ma’lumotlar, rejalar, vazifalarning taqsimlanishi asosida birgalikda faoliyat olib borishga intiladi. Yoshga qarab muloqot bolaning hissiyotini, o‘zaro tushunishini, tengdoshlariga nisbatan hissiy yaqinlikni tasvirlay boshlaydi. 7 yoshga borib bola tengdoshining shaxsiy xususiyatlarini ajrata boshlaydi (“qiziqarli o‘yinlarni o‘ylab topadi”, “yaxshi yuguradi”, “juda yaxshi bola” va boshqalar).

Bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun oila va maktabgacha ta’lim tashkilotining hamkorligi muhim. Chunki bolaning kattalar va tengdoshlari orasida o‘zini tutishi, muloqotga kirishishi, ta’limiy faoliyat turlariga qatnashishini maktabgacha ta’lim tashkilotida kuzatib, bolaning yutuq va kamchiliklarini oila a’zolariga aytib, yuasosida olib boorish, bolaning ijtimoiy-hissiy rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi.

Adabiyotlar:

1. “Objectives in directing the youth to the scientific-creative occupations” chirchiq davlat pedagogika instituti “Yangi O‘zbekistonda pedagogik ta’lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2022 yil 21 may
2. “Maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan maktab o‘rtasidagi aloqaning mazmuni va shakllari” “Bugungi kunda ta’lim va tarbiyani rivojlantirishning dolzarb masalalari” mavzusida Respublika ilmiy-nazariy onlayn anjuman materiallari 2021 yil 17 may
3. “Maktabgacha ta’lim tashkilotining oila bilan hamkorligi” maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning dolzarb vazifalari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-onlayn konferensiya materiallari to‘plami 2020 yil 23 oktabr
4. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida estetik tarbiya berish turlari va usullari” mavzusidagi maqola Xorazm Ma’mun Akademiyasi axborotnomasi 11-son 2022 yil 17 oktabr
5. Tarbiya yoshlar kelajagi poydevori. Kinds of popular scientific article konferensiya materiallari to‘plami. 2022 yil 15 oktabr
6. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida ta’limiy faoliyat turlarini tshkil etish. “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari” Xalqaro amaliy konferensiyasi to‘plami 2022 yil 18 noyabr

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola maktabgacha ta’lim tashkiloti va oilaning bolada “men”ning shakllanishi va ijtimoiy-hissiy rivojlanishida bajaradigan vazifalari to‘g‘risida yozilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье написано о задачах дошкольной образовательной организации и семьи в формировании «Я» и социально-эмоциональном развитии ребенка.

SUMMARY

This article is written about the tasks of the preschool educational organization and the family in the formation of the «I» and the social and emotional development of the child.